

“Kadrlar boshqaruvi, Xodimlarni boshqarish” malaka oshirish kursi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi ikki haftalik “Kadrlar menejmenti, Kadrlar boshqaruvi” malaka oshirish kursini o‘tkazdi. Kursda Ozbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Ozbekiston Respublikasi Davlat zaxiralari qo‘mitasi kadrlar xizmati xodimlari ishtirok etdilar. Trening davomida xodimlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari va kontseptsiyalari, mehnat qonunchiligining asoslari, mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish masalalari, ishga qabul qilishda psixodiagnostika va boshqalar kabi mavzularga to‘xtalib o‘tildi. Tinglovchilar kursni tashkillashtirganliklari uchun minnatdorchiliklarini bildirib, ijobiy fikrlar qoldirishdi.







